

XXI asrda axborot xavfsizligi masalalari, muammo va yechimlar

Yusupova Nargiza Qo'ziboyevna

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar Universiteti

Jurnalistika bo'limi 1- bosqich magistranti

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Axborot xavfsizligi tushunchasi nazariyasi va uning jamiyat hayotidagi roli, xususan, texnik imkoniyatlar, kiberxavfsizlik, axborotning yoshlar ongiga ta'siri yoritilgan bo'lib, axborot xavfsizligini ta'minlashdagi chora - tadbirlar haqida so'z boradi.

KALIT SO'ZLAR: Axborot, axborot xavfsizligi, nazariya, internet, raqamlashtirish.

Inson dunyoga kelibdiki, atrof - muhitni anglashga, undagi voqealarni tushinishga, idrok qilish orqali qabul qilingan axborotga o'z munosabatini bildirishga intiladi, tasavvuridagi ma'lum xulosalar bilan to'qnashadi. Shu bois ham uning aynan axborotga bo'lgan ehtiyoji kun sayin ortib boraveradi. Shu o'rinda axborot tushunchasi o'zi nima? U insonga nima uchun xizmat qiladi, degan savollarga izoh keltirsak. Axborot (informatsiya) tushunchasi lotin tilidagi "informatio" so'zidan olingan bo'lib, bayon etish, tushuntirish, izohlash kabi ma'nolarni bildiradi. Axborot deyilganida biz radio va televideniye xabarlarini, ma'lumotlar bazasini, kutubxonadagi kitob, gazeta-jurnallarni, inson bilan muloqot qilish orqali ilmiy jurnallardan olingan bilimlarni nazarda tutamiz. Ayonki, inson hayotining har bir soniya, daqiqasida, turli ko'rinishdagi axborotlarni qabul qiladi. Fan va texnika yutuqlari hayotimizga yashin tezligida kirib kelayotgan ayni pallada esa axborot xavfsizligi tushunchasi dolzarbligi soat sayin ortib bormoqda. Axborot xavfsizligi (inglizcha: Information Security, shuningdek, inglizcha: InfoSec), ya'ni axborotga ruhsatsiz kirish, undan foydalanish, fosh etish, tarqatish, o'zlashtirish, ko'chirib olish, o'zgartirish kiritish, yo'q qilish singari amaliyotlarning oldini olishga qaratilgan amaliyot hisoblanadi. Bu konsepsiya ma'lumotlar qanday ko'rinishda bo'lishiga qaramasdan xoh u elektron, xoh jismoniy bo'lsin, amal qilish xususiyatiga ega. Shuningdek, axborotlarni himoyalashdan asosiy maqsad uning yaxlitligiga erishish, konfidensialligi hamda mavjudligini ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Manbalarga yuzlanadigan bo'lsak, axborot turlari quyidagicha farqlanadi:

1. Ommaviy axborot – cheklanmagan doiradagi shaxslar uchun mo'ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, bosma, audio, audiovizual hamda boshqa xabarlar va

materiallar;

2. Hujjatlashtirilgan axborot – identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlari qo'yilgan holda moddiy jismda qayd etilgan axborot;

3. Maxfiy axborot – foydalanilishi qonun hujjatlariga muvofiq cheklab qo'yiladigan hujjatlashtirilgan axborot kabilarni aytish mumkin.

Ochiq aytganda, axborot maydonida muayyan jamiyat, shuningdek, shaxs manfaatlarini ta'minlanishi, ijtimoiy huquqiy hamda demokratik tamoyillarga asoslangan davlat qurishni anglatadi. Shu o'rinda axborot hajmining ortishi va uni qayta ishlash vositalarining rivojlanmaganligi insonning u to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi va ulardan foydalanishini qiyinlashtiradi. Ko'plab vaqt axborotni qidirishga, ajratishga va foydalanishga ketadi. Axborot fondlari har bir insonga xizmat qilishi uchun yangi, zamonaviy vositalar kerak bo'ladi. SHuning uchun XX asr o'rtalariga kelib axborotni ishlash sohasida ko'p odamlar shug'ullana boshladi. Axborot bilimlar manbai sifatida jamiyat uchun strategik resursga aylandi. Bu resurslardan samarali foydalanish esa jamiyatni axborotlashtirish jarayoni bilan bog'liq albatta. Ushbu tendensiya natijasida bugun mamlakatimizda ham aynan raqamli texnologiyalar orqali yangi uslub va qulayliklarning hayotimizga kirib kelishi hamda son jihatidan ko'payayotganini alohida ta'kidlash joiz. Raqamlarga qaraydigan bo'lsak, o'tgan 2023 – yilda ta'lim, bank, moliya, bojxona, qishloq xo'jaligi, geologiya, kadastr kabi sohalarni raqamli transformatsiya qilish doirasida 100 ta dasturiy loyiha ishlab chiqilgan. 500 dan ziyod yangi IT kompaniyalari tashkil etilib, sohaga 475 million dollar to'g'ridan - to'g'ri xorijiy investitsiya kirib kelgan. Misol uchun, raqamli formatda ishlashning o'ziga xos qulayliklari sirasiga birgina xizmatlar sohasidagi quyidagi yangiliklarni keltirish kifoya. 2023-yil yakuni bo'yicha Yagona portalda 200 ta yangi elektron davlat xizmatlari va servislar joriy etilib, jami xizmatlar soni 570 taga yetkazildi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish – 154 foiz). Jumladan, Yashash joyi to'g'risida ma'lumotnoma olish, hisoblangan ish haqi to'g'risida ma'lumotnoma olish, haydovchilik guvohnomasini yangilash, sportchi pasportini berish kabi yangi elektron xizmatlar joriy etildi. Albatta, bu kabi sa'y-harakatlar ko'lamini joriy 2024- yilda ham kengayayotganini jamiyat hayotidagi yangiliklar misolida ko'rmoqdamiz. Ayonki, raqamlashtirish jarayonining tezlashishi kundalik turmush sharoitini yaxshilashga, xususan, vaqt va masofa qisqarishi, ortiqcha sarf - xarajatlarning oldini olishga, inson omiliga bo'lgan ehtiyojni sezilarli darajada kamaytirishga imkon yaratadi.

Shu bilan birga raqamlashtirish jarayonining taraqqiy etishi axborotlarni saqlashda xavfsizlik darajasi ham shunga monand bo'lishi kerakligini bevosita taqozo etadi. Bu jarayon esa bir nechta omillar bilan uzviy bog'liq. Gap shundaki,

2017- yilda axborot xavfsizligi sohasi rahbarlarining 66 % i o'z bo'limlarida ishchi kuchining keskin yetishmasligini tan olishgan va 2022-yilga kelib bu sohada mutaxassislarning tanqisligi darajasi butun dunyoda 1 800 000 kishini tashkil etishini taxmin qilgan. Demakki, axborot xavfsizligiga erishishda sohada mutaxassis kadrlarga ehtiyoj masalasini asosiy mezonlardan biri sifatida e'tirof etish o'rinli. Mamlakatimizda jismoniy va yuridik shaxslarga ayrim turdagi xizmatlarni taqdim etish, xususan,elektron hujjatlar tarkibining to'liq emasligi, kadastr hujjatlarida begona shaxslar nomlarining keltirilishi, ya'ni texnik imkoniyatlar samaradorligi yetarli emasligi, qolaversa, kiber jinoyatlar, turli internet tarmoqlari orqali taqdim etilayotgan filtrsiz axborotlarning yoshlar ongiga salbiy ta'siri kabi holatlarni sanab o'tish mumkin. Ko'rsatkichlarga ko'ra 2023-yilning 11- oyida 5,5 mingta kiberjinoyat sodir etilgan. Shundan 70 foizi bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik va o'g'irlik jinoyatlari hisoblanadi. O'tgan yili O'zbekistonda 50 ga yaqin to'lov tizimi mavjud bo'lgan bo'lsa, ularning hammasi ham kiberxavfsizlik talablariga javob bera oladi deyolmaymiz. Shu bilan birga internet tizimidagi yoshlarimizga yot bo'lgan, buzg'unchi g'oyalarni (pornografiya, zo'ravonlik, behayolik, narkoxizmatlar) ni targ'ib etuvchi axborotlarning mavjudligi achinarli holat. Masalan, 2021—2022- yillarda 18 mingdan ortiq shunday huquqbuzarlik holatlari aniqlangan. Bu vaziyat axborotlashayotgan bugungi jamiyatimizda hayotimizga kirib kelayotgan axborot xurujidan himoyalanişda yanada kuchli, barqaror xavfsiz tizimga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi 6 ta bosqichdan iborat kompleks chora – tadbirlar rejasi axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratiladi:

1. Qonuniy- axborot xavfsizligiga ziyon yetkazish holatlarida qat'iy qonuniy choralarni qo'llash;
2. Dasturiy texnik – ma'lumotlar bazasini raqamlashtirish jarayonida yuqori texnik (kodlashtirish va boshqa) imkoniyatlardan to'liq foydalanish;
3. Ma'muriy – hujjatlarda belgilangan tartibda javobgarlikni ta'minlash;
4. Shaxsiy - fuqarolar o'z shaxsiga oid ma'lumotlarni saqlashda, ehtiyotkorlik ko'nikmasini shakillantirishda (TV, Radio, Internet tarmoqlari va boshqalar orqali) ma'lumotlarni muntazam taqdim etib borish;
5. Malakali kadrlar - tizimda mutaxassis kadrlar salohiyatidan to'laligicha foydalanish.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki har qanday davlatda axborot xavfsizligiga erishish nafaqat shaxs, balki butun jamiyat barqarorligini ta'minlashga qaratilgani bilan muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda axborotdan foydalanishda buzg'unchi, manbasi aniq bo'lmagan yolg'on ma'lumotlardan

tiyilish, uning himoyalanganlik darajasiga jiddiy e'tibor qaratish, xavfsizlik choralarini chetlab o'tishdan qochish va bu jarayonda shaxsiy hushyorlikni unutmasligimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.T.Abdilaxatovich “ Axborot tizimlari nazariy asoslari”. Toshkent – 2012.7-bet
2. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda №439-II-sonli “ Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida ” gi qonuni
3. R.X.Alimov, O'.T.Xayitmatov, A.F.Xakimov, G.T.Yulchieva, O.X.Azamatov, U.A.Otajanov AXBOROT TIZIMLARI. O'quv qo'llanma Toshkent 2013 . 10 bet.
4. Shuhrat Sharafutdinov, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Innovatsion rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi a'zosi nutqidan. 22.12.2023
5. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar Vazirligi [https://digital.uz/Oxirgi yangilanish: 2024-01-15 21:24:41](https://digital.uz/Oxirgi_yangilanish:2024-01-15_21:24:41)
6. <https://kun.uz/> 20.12.2023
7. <https://daryo.uz/> 30.05.2022